

OLIY TA'LIM MUASSASASI PEDAGOGIK JAMOASIDAGI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUHIT VA UNING SHAKLLANISH OMILLARI

Yunusaliyeva Nargiza Ortiqboy qizi

QDU Psixologiya kafedrası assistenti

Nazirova Umidaxon Dehqonboy qizi

QDU Psixologiya ta'lim yo'nalishi 2 bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20718622>

ANNOTATSIYA: Maqolada ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritayotgan pedagogik jamoalardagi ijtimoiy-psixologik muhitning o'rganilish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Muallif pedagogik jamoaning kasbiy kompetensiyasi, jamoadagi barqaror muhit hamda nizoli vaziyatlarning oldini olishda pedagoglarning shaxsiy sifatlari naqadar muhim omil ekanligini yoritib beradi. Tadqiqotda V.S.Tretyakova, A.V.Eremeeva, S.L.Fomenko, Ye.A.Rilskaya va I.B.Avakyan kabi olimlarning ilmiy ishlari qiyosiy tahlil qilinib, maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-psixologik muhitni baholash mezonlari (kognitiv, emotsional, xulq-atvor komponentlari) hamda uning innovatsion faoliyatga ta'siri yuzasidan xulosalar bayon etilgan. Shuningdek, turli ta'lim bosqichlaridagi pedagogik jamoalar munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ushbu muhitni barqarorlashtirish uchun psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish zarurati asoslangan.

KALIT SO'ZLAR: Pedagogik jamoa, ijtimoiy-psixologik muhit, ta'lim samaradorligi, kasbiy kompetensiya, boshqaruv mexanizmlari, nizoli vaziyatlar, shaxslilik sifatlari, innovatsion tayyorlik, emotsional komponent, xulq-atvor komponenti.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida ta'lim samaradorligini oshishida, shuningdek pedagogik faoliyatning barqarorligida pedagogik jamoa muhim omil hisoblanadi. Pedagogik jamoaning kasbiy kompetensiyasi, jamoadagi ilmiy muhiti, jamoadagi har bir pedagogning kasbiy malakasi birlamchi sabablar sifatida qaraladi. Ta'lim muassasalarida pedagog faoliyatining barqarorligida yuqoridagi omillardan tashqari pedagog jamoasining ijtimoiy-psixologik muhit muhim ta'sirga ega. Ijtimoiy-psixologik muhitning barqarorligi pedagogik jamoadagi munosabatlarni ijobiy bo'lishiga va bu esa o'z-o'zidan ta'lim hamda pedagogning kasbiy faoliyatini samaradorligini oshirishga sabab bo'ladi.

Zamonaviy psixologiyada, xususan pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, mehnat psixologiyasi, shuningdek, pedagogikada, ergonomika kabi pedagogik faoliyatni tahlil qilinuvchi fan va sohalarda ijtimoiy-psixologik muhit o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlangan sohalarda pedagogik jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni o'rganish masalasida ilmiy hamda amaliy qiymati yuqori bo'lgan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarini ko'rish mumkin. Quyida mazkur masala yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlariga tahliliy ko'rib chiqiladi. Pedagogik faoliyatda pedagogik jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit masalasida qilingan tadqiqot ishlardan V.S.Tretyakova va A.V.Eremeevalarning tadqiqotlaridir. Tadqiqotda muayyan pedagogik jamoada qulay psixologik muhitni yaratish uchun boshqaruv mexanizmlarini o'rganish zarurligi ko'rsatilgan. Pedagoglarning samarali faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi yuzaga keladigan muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy tadqiqotlar zarurligi tavsiflangan. Tadqiqot muammosi ta'lim tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi zarurati va ular rahbarlarining boshqaruv faoliyatini amalga oshirishga yetarlicha tayyor emasligi o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining iqlimi va motivatsiyasi hamda ularning ta'sirini o'rganish tavsiflangan. Tadqiqotchilar maktabgacha va

umumo'rta maktab pedagogik jamoalarining psixologik muhitini Ma'lumotlilik, Uyushqoqlik, Ochiqlik, O'zaro munosabatlar, Ahillik, Guruh butunligini saqlab qolish kabi mezonlar asosida tahlil qilingan. V.S.Tretyakova va A.V.Eremeevalarning tadqiqot ishida ta'lim tizimining ikki bosqichi – maktabgacha hamda umumo'rta maktab ta'limida faoliyat olib boruvchi pedagogik jamoalardagi psixologik muhitni tahlil qilingani tadqiqotning amaliy qismidagi natijalarning empirik qiymatini oshiradi. Shu o'rinda mazkur tadqiqot natijalarini amaliyotda, xususan, pedagogik jamoalardagi psixologik muhitni barqarorlashtirish uchun zaruriy psixologik-terapevtik hamda sotsial-psixologik trening dasturlarini ishlab chiqishida muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot ishining ikki ta'lim bosqichida amalga oshirilgani tadqiqot ishining o'ziga xos ilmiy yutug'i sifatida qarashdan tashqari, bu ikki ta'lim bosqichidagi pedagoglar funksiyalarning turlicha ekanligini inobatga olgan holda qo'shimcha baholash mezonlarini qo'shishganda, tadqiqot ishining amaliy qiymati oshishi imkoni bo'lar edi. Sababi, turli ta'lim bosqichlaridagi pedagogik jamoa vakillarining o'zaro munosabatlari bevosita ularning vazifalariga bog'liq.

Ta'lim muassasalaridagi pedagogik jamoaning shakllanishidagi ijtimoiy-psixologik muhitining ta'siri masalasiga tadqiqot ishlaridan S.L.Fomenkning tadqiqot ishida ham alohida yondashilgan Tadqiqot ishi uch bosqichdan iborat bo'lgan. Har bir bosqich o'ziga birinchi bosqichda nazariy-metodologik xarakterga ega bo'lib, tadqiqot muammosi nazariy jihatdan tushunish, dastlabki nazariy pozitsiyalarni, tadqiqotning ishchi apparatini aniqlash bilan bog'langan edi. Ikkinchi bosqich tadqiqotning metodologik asoslarini aniqlashga, pedagogik jamoani kasbiy shakllantirishning konseptual modeli elementlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Uchinchi bosqich oldingi bosqichlardagi tadqiqot faoliyati natijalarini umumlashtirish, ishlab chiqilgan, sinovdan o'tgan, aniqlashtirilgan elementlarni pedagogik jamoaning kasbiy shakllanishining yaxlit konseptual modeliga birlashtirish, shuningdek, tashkilot amaliyotida asosiy konseptual qoidalarni sinovdan o'tkazishga bag'ishlangan. Tadqiqotchi o'z tadqiqot ishida umumo'rta maktablardagi pedagogik jamoalarning shakllanishida ushbu pedagogik jamoaning dastlabki ijtimoiy-psixologik muhitining holati katta ta'sir qiluvchi omil sifatida qayd etiladi.

Pedagoglarning indiviudal va shaxslilik jihatlarining ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qayd etiladi. Bu masalada bir qancha tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Shunday tadqiqotlardan Ye.A.Rilskayaning tadqiqot ishini qayd qilish mumkin Ye.A.Rilskaya o'z tadqiqot ishida pedagogik jamoadagi nizoli vaziyatlarda hamda ehtimoliy nizolarda pedagoglarning shaxsiy sifatlarini ahamiyatini hamda ta'sir darajasini aniqlashni asosiy maqsad qilib qo'ygan. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi nizolar maydoni keng va ko'p qirrali. U insonning ichki psixologik hayotini, boshqalar bilan munosabatlarini, guruhlararo o'zaro ta'sirlar va ijtimoiy qatlamlar, sinflar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, nizolar turli darajalarda o'rganiladi: psixologik, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik. Ye.A.Rilskayaning tadqiqot ishi nizoli vaziyatlarning pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik muhitini shakllanishiga salbiy ta'sir qilishi qatori pedagogik jamoaning tuzilmasini o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlanadi. Nizolarni oldini olishda esa jamoa a'zolarining shaxslilik sifatleri juda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ham jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni ijobiy shakllanishida pedagoglarning shaxslilik sifatleri ham katta ta'sir qiluvchi omil sifatida qayd etish maqsadga muvofiq.

Ta'lim bosqichlaridagi pedagogik jamoalardagi ijtimoiy-psixologik muhit masalasidagi tadqiqot ishlaridan yana bir e'tiborga molik tadqiqot ishi I.B.Avakyanning ishidir. Tadqiqot ishida oliy ta'limda faoliyat olib boruvchi pedagoglar jamoasining rivojlanayotgan ta'lim tizimidagi ijtimoiy-psixologik muhiti va innovatsion o'zgarishlar bilan bog'liq masalasini o'rganishiga qaratilgan. Tadqiqot ishida 9 ta turli OTMlarda faoliyat olib boruvchi pedagoglarning jamoalari tadqiq qilingan. Tadqiqotchi o'z ishida oliy ta'lim pedagogik jamoalaridagi ijtimoiy-psixologik muhitni Emotsional, Xulq-atvor, Kognitiv komponentlar bilan tahlil qilgan. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida esa ijtimoiy-psixologik muhitning innovatsion o'zgarishlarga ta'siri tahlil qilingan. Ijtimoiy-psixologik muhit bilan bog'liqlikni innovatsion ijodkorlikni bog'lashda Innovatsion tayyorlik darajasi, Ijodkorlik potentsiali va Innovatsion faoliyatga to'siqlarni anglash xususiyatlarini yuqorida keltirib o'tilgan komponentlar bilan korrelyatsiyasi amalga oshirilgan.

Zamonaviy pedagogik faoliyatda innovatsiyalar bilan ishlash muhim shartlardan biriga aylanmoqda. Innovatsiyalarning psixologik muhitga ta'siri va innovatsiyalarning pedagogik jamoaning psixologik muhitini innovatsiyalar rivojlanishiga ta'siri juda ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu ma'lumot ham I.B.Avakyanning tadqiqotining zamonaviy fanda dolzarblik darajasini belgilab beradi. Yuqorida keltirib o'tilgan tadqiqot ishlari asosan umumo'rta ta'lim shaklida faoliyat olib boruvchi pedagogik jamoalarining ijtimoiy-psixologik muhitining shakllanish shartlari va omillari tahlil qilingan. O'rta-maxsus va oliy ta'lim bosqichlarida pedagogik jamoalarning faoliyatida umumo'rta ta'lim bosqichidagi pedagoglarning faoliyatida farqli jihatlari mavjud. Quyida o'rta-maxsus hamda oliy ta'lim bosqichlarida ijtimoiy-psixologik muhitning shakllanishi masalasiga to'xtalib o'tilgan tadqiqot ishlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, o'rta-maxsus ta'lim bosqichi kasbiy malaka hamda ma'lum soha bo'yicha zaruriy fundamental bilimlarga ega kadrlarni yetkazib berishda muhim ta'lim bosqichi hisoblanadi. Shu sababli ham mazkur bosqichda faoliyat olib boruvchi pedagoglarga o'ziga xos talablar va shartlar mavjud. Aynan o'rta-maxsus ta'lim bosqichidagi pedagoglarning faoliyati, xususan, pedagoglarning psixologik jihatlari o'rganilgan tadqiqot ishlaridan L.A.Jurining tadqiqot ishi dolzarbligi hamda muhimlik darajasi bilan ajralib turadi¹. Mazkur tadqiqot ishida pedagogik kollejlardagi o'quv guruhlariga rahbarlik qluvchi pedagoglarning guruh sardorlari bilan munosabatlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilingan.

So'nggi paytlarda o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlari muammosining turli jihatlari bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lami sezilarli darajada oshdi. Biroq, ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu muammoning barcha jihatlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Rahbarning sinf jamoasining yuqori mavqega ega bo'lgan a'zolari bilan o'zaro munosabatlari muammosi ham shular jumlasidandir. Guruhni boshqarish, uning a'zolariga ta'sir ko'rsatish ko'plab omillar bilan belgilanadi, ular orasida rahbar va yetakchining guruhdagi o'zaro ta'siri ham bor. Bu odamlarning har biri guruh hayot faoliyatini tartibga solishning ma'lum bir tizimini ifodalaydi. Rahbarlik va yetakchilik bir-biriga ta'sir etuvchi va bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir.

Yuqoridagi tadqiqotlardan tahlil qilingan ma'lumotlardan bilish mumkinki pedagogik jamoalarning ijtimoiy-psixologik muhitini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi omillar turlicha bo'lib, bunga sabab pedagogik jamoa a'zolarining individual xususiyatlari, ta'lim bosqichlari, ta'lim shakllari hamda ijtimoiy jarayonlarni ko'rsatish mumkin. Shu sababli ham pedagog mehnat

jamoalarining ijtimoiy-psixologik muhitini o'rganish doimiy dolzarb muhokama qilinadigan ilmiy mavzulardan hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Журина Л.А. Психологические особенности взаимодействия классного руководителя с лидерами учебной группы педагогического колледжа: Автореф... дисс.кан.психол.наук. – Москва:2000. 34 с.
2. Авакян И.Б. Социально-психологический климат педагогических коллективов высших учебных заведений и инновационная готовность в условиях модернизации образования. Образование и наука. Том 20, No 4. 2018/The Education and Science Journal. Vol. 20, No 4. 2018 с.6-19.
3. Рыльская Е.А. Влияние свойств личности учителя на особенности его конфликтов в педколлективе: Автореф... дисс.кан.пед.наук. – Москва:1996. 45 с.
4. Фоменко С.Л. Профессиональное становление педагогического коллектива: Автореф... дисс.кан.пед.наук. – Екатеринбург:2007. 51 с.
5. Yunusaliyeva Nargiza Ortiqboy qizi. Oliy ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida. // Psixologiya ilmiy jurnali. – 2025. – №1. – 141–144 б. – ISSN 2181-5291. – www.buxdu.uz
6. Nargiza Yunusaliyeva. Pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Kasb-hunar ta'limi ilmiy-uslubiy, amaliy jurnal. – 2024. – №11. – 100–102 б.
7. Yunusaliyeva Nargiza Ortiqboy qizi (Karshi, Uzbekistan). Psychodiagnostic Opportunities for Studying the Sociopsychological Characteristics of a Pedagogical Team // Vestnik Integrativnoy Psikhologii. – 2025. – Выпуск 37, часть 2. – С. 77–80. – ISBN 978-5-9527-02-16-5.
8. Yunusaliyeva Nargiza. Oliy ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. // “O'zbekistonda ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishga zamonaviy yondashuv: nazariya va amaliyot”. – 2025-yil 20-oktyabr. – 133–135 bet. – ISSN 3060-4648. – Guvohnoma №319860.
9. Z. U.Eshonqulova (2025) Талфбфлфрнинг таълим фаолиятидаги академик прокрастинация: хусусиятлар, сабаблари ва олдини олиш стратегиялари
10. Usmonovna E. Z. Social-psychological Features OF Adaptation OF Students with Disabilities in Higher Educational Institutions // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – T. 11. – №. 12. – С. 1618-1620.